

ONOMASTIKA NAZARIYASI VA UNING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17505015>

Nozimova Maftuna Ravshanbek kizi

Tel: +99890 302-21-32

THEORY OF ONOMASTICS AND ITS STUDY IN WORLD LINGUISTICS

ТЕОРИЯ ОНОМАСТИКИ И ЕЕ ИЗУЧЕНИЕ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Annotation

This article explores the essence, research object, and main directions of the science of onomastics. Onomastics is defined as a branch of linguistics that studies proper names – their origin, formation, meaning, and usage in speech. The paper analyzes key branches such as anthroponymy, toponymy, theonymy, zoonymy, and cosmonymy, emphasizing their linguistic and cultural significance. It also discusses the distinction between theoretical and practical onomastics, as well as the research methods applied in this field. The historical development of onomastic studies, from ancient Greek philosophers to modern linguists, is also briefly reviewed.

Keywords

onomastics, proper names, anthroponymy, toponymy, theonymy, zoonymy, cosmonymy, astroponymy, theoretical onomastics, practical onomastics, nomination, etymology, linguistics, literary onomastics, historical development.

Аннотация

В данной статье рассматриваются содержание, объект исследования и основные направления науки ономастики. Ономастика определяется как раздел языкознания, изучающий собственные имена, их происхождение, образование, значение и особенности употребления в речи. В работе анализируются основные разделы ономастики – антропонимия, топонимия, теонимия, зоонимия, космонимия и другие. Освещаются различия между теоретической и прикладной ономастикой, а также методы исследования, применяемые в этой области. В статье также кратко рассматривается историческое развитие ономастики – от античных философов до современных лингвистов.

Ключевые слова

ономастика, собственные имена, антропонимия, топонимия, теонимия, зоонимия, космонимия, астрономия, теоретическая ономастика, прикладная ономастика, номинация, этимология, языкознание, художественная ономастика, историческое развитие.

Annotatsiya

Ushbu maqolada onomastika fanining mazmuni, tadqiqot obyekti va asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Onomastika atoqli otlarning kelib chiqishi, shakllanishi, ma'nosi va ularning nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi sifatida talqin qilinadi. Maqolada antroponimiya, toponimiya, teonimiya, zoonimiya, kosmonimiya va boshqa bo'limlarning mazmuni hamda ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, nazariy va amaliy onomastika turlari, ularning o'zaro farqlari, atoqli nomlarni o'rganishda qo'llaniladigan ilmiy usullar haqida ma'lumot beriladi. Onomastikaning tarixiy rivoji, qadimgi yunon olimlaridan tortib zamonaviy tilshunoslargacha bo'lgan ilmiy qarashlar izchil yoritilgan.

Kalit so'zlar

onomastika, atoqli ot, antroponimiya, toponimiya, teonimiya, zoonimiya, kosmonimiya, astroponimiya, nazariy onomastika, amaliy onomastika, nominatsiya, etimologiya, tilshunoslik, badiiy onomastika, tarixiy rivojlanish.

Onomastika - yunoncha "onomastike" - so'zidan olingan bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Ma'lum bir til, xalq garkibvda ko'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisi.
2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.⁵

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qandai atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib ko'radi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan ob'ektlarning toifalarsha ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: **antroponimiya** - kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiadari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), **toponimiya** - geografik ob'ektlarning atoqli nomlari, teonimiya - turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, **zoonimiya** -

⁵ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – С. 118-139.

hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, **kosmonimiya** - fazoviy bo'shli hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, **astroponimiya** - ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi.

Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi **realionimlar** (avval va hozir mavjud bo'lgan ob'ektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan **mifonimlar** xayoliy - to'qima ob'ektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va diapektal* onomastika, *odatdagi (amaliy) va poetik* onomastika, *zamonaviy va tarixiy* onomastika, *nazariy va amaliy* onomastika kabi turlarga bo'linadi.⁶

Shulardan biri bo'lgan nazariy onomastika til va iutkdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi gurli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutkda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilmasini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir.

Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jixatlarini ham o'rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkrintsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, horijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Tiddagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.⁷ Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, Aristotel "Poetika" asarida otni nutq bo'laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Ot murakkab, ma'no anglatuvchi, zamonni

⁶ Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – Москва, Международные отношения, 1972. – С. 8.

⁷ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. Избранные труды. – Москва, 1977. – С. 140-161.

bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir".⁸ Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastik" nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug'at yaratgan. Stoiklar, jumladan Xrisipp atoqdi otlarni alohida til birligi, so'zlar guruhi deb tasnif qilgan. edi. Uyg'onish davrida va o'rta asrlarda (T.Gobbs, Dj.Lokk, G.Leybnits) hamda butun XIX asr davomida (J.Mill, X.Djozef va boshqalar) atoqli otlar, ularning til lug'aviy qatlamidagi o'rni masalasiga doir munozara davom etdi. Bu sohada eng muxim masala atoqli otlar qanday ma'no bildirishini aniqlashdan iborat edi.⁹

XVIII-XIX asrlar davomida bu muammo faqat tilshunoslar tomonidan emas, faylasuflar, mantiq olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Bu muammoni o'rganishga yirik ingliz mantiqshunos olimi Djon Styuart Mill (1806-1873) juda ko'p kuch sarfladi.

Uning talqinida atoqli otlar ma'no bildirmaydi, ular o'ziga xos belgilar, yorliqlar sifatida predmetni bilishga, uni boshqa predmetlardan farqlashga yordam beradi. Biror predmet, kishining nomi (atoqli ot) o'sha predmet yoki shaxs tavsifi uchun to'la asos bo'lolmavdi. O'z fikrlarini rivojlantirib, J.Mill so'zlarni ikki guruhga ajratadi:

a) so'z-belgilar, b) xarakterlovchi (konnotatsiyalovchi) so'zlar.

Konnotatsiyalovchi so'zlar atoqli otlardan keyin vujudga kelgan. Yana bir ingliz mantiqshunosi X.Djozef atoqli otlar haqida J.Millga qarama-qarshi fikrlarni bildirgan edi. Uning fikricha atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan kengroq va ko'proq ma'noga egadir.

Masalan, "Palikur (kishi ismi, afsonaviy Eneyning hamrohi, yo'ldoshi) e'tibordan chetda qoldi" degan gapi "Inson e'tibordan chetda qoldi" gapidan ancha mazmunliroqdir.

XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo'nalishni mashhur ingliz faylasufi va mangiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, ma'lum makonda va zamonda atqagan otlar yordamida ifodalanuvchi ma'no turdosh otlarga nisbatan aniqroq ilmiyroq xarakterga egadir. Bu jihatdan atoqli otlar *bu, o'sha, ana shu, ana bu* singari ko'rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi.¹⁰ Daniya tshshsunosi Paul Kristofersen atoqli otlar bilan turdosh otlar orasidagi

⁸ Aristotel. Poetika (poeziya san'ati haqnda). Ruschadan M.Maxmudov, U.Go'ychnsvdar garjimasi. Toshkent: Adabiet va san'at nashriyoti, 1980. - B.41

⁹ Rahmatullaev Sh. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. diss. - Moskva, 1952. - B. 52.; Rahmatulaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya va omonimlik). - Toshkent: Fan, 1966. - 264 b.; Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1978. - 408 b.; Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - Toshkent, 1992. - 363 b.; Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek va rus tillarida frazeologik antonimlar. - Toshkent, 2000. - 32 b

¹⁰ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. - Ташкент: Фан, 1983. - 136 с.; Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеологии. - Ташкент: Фан, 1977. - 104 с.

farqni ularning birinchisi aniq konkret ma'noni, keyingisi esa mavhum ma'noni ifodalashida ko'radi.

Atoqli otlar individning, shaxsning bevosita ismi, nomi bo'lsa, turdosh otlar bilvosita nomlardir. Turdosh otlar dastlab butun bir guruh to'da nomini bildiradi, keyinchalik bu nom konkretlashadi.

Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning "Atoqli otlar nazariyasi" (1954) nomli asari onomastika fanini yangi bosqichga ko'tardi. Dj.Millning atoqli otlarni ma'no yo'qligi haqidagi fikrini rivojlantirib A.Gardiner atoqli otlar o'ziga xos nomlar bo'lib, predmet, voqea-hodisa haqida aniq, konkret tasavvurlar yig'indisini o'zida ifoda etadi. Bu jihatdan atoqli otlar ikki bo'linadi:

- a) mujassamlanuvchi, timsol bo'la oluvchi (voplovdetshy) atoqli otlar va
- b) mujassamlanmovchi, timsol bo'la olmovchi atoqli otlar.¹¹

Masalan, Vil'ям Shekspir, Temza daryosi kabi atoqli otlar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma'lum bir shaxs (bu o'rinda buyuk dramaturg) va geografik ob'ekt (bu o'rinda daryo) haqida umumiy, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz oddiygina qilib Vilyam desak, bu mujassamlanmovchi, kishi ismi haqida umumiy tasavvur beruvchi atoqli otni bildiradi.

Tarixiy nuqtai nazardan mujassamlanuvchi atoqli otlar oldinroq, avvalroq vujudga kelgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponimlar bu nazariyaga ko'ra, mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz davlatchiligi tarixi, madaniyatida juda katta o'rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o'zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o'z bolalarini ana shunday mashhur shaxslarga o'xshashini orzu qilib ko'ygan Temur, Temurbek, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi antroponimlar esa mujassamlanmovchi atoqli otlar sirasiga mansubdir.

Taniqli tilshunos M.I.Steblyin-Kamenskiy qadimgi island adabiyoti materillari asosida onomastik leksikani mujassamlanish nuqtai nazaridan o'rganar ekan, island adabiyotida qo'llangan onomastik leksikada umuman "mujassamlanish" hodisasi bo'lmaganligini qayd qiladi. U ning fikricha, har qanday atoqli ot muayyan denotatni, ma'noni ifodalab kelgan.

O'z vaqtida T.Gobbs tomonidan ishlab chiqilgan atoqli otlarning "mujassamlanish" xususiyati haqidagi ta'limot keyinchalik G.Leybnits tomonidan yanada takomillashtirilgan edi. Nemis faylasuf olimi G.Leybnits fikricha, atoqli otlarda konkret va mavhum tafakkur elementlari ifodalangan bo'ladi. Olimning bu fikri atoqli otlarni tilda (muloqotning belgisi elementlari tizimida) va nutqda (bu

¹¹ Манушкина Г.П. Фразеологические единицы с компонентом – «имя собственное» в современном английском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Рязань, 1973. – 255 с

elementlarning kommunikativ nuqtai nazardan qo'llanishida) olib qarash nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Ana shunday qarashlar tufayli tilshunoslikda atoqdi otlarga abstrakt-mantiqiy va koikrettarixiy nuqtai nazardan yondoshuv vujudga keldi.¹²

O'z vaqtvda J.Mill tomonidan asoslangan atoqdi otlarda hech qanday ma'no elementi yo'q, degan ilmiy qarash keyinchalik V.Bryondal, E.Boyssensom, L.Elmslev kabi tanikdi tilshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi. Natijada ayrim olimlar, va jumladan daniya tilshunosi Knud Togebyu atoqti otlar (jumladan, olmoshlar ham) semantik mazmunga ega bo'lmaganligi uchun o'zaro sinonimlardir. Shunga ko'ra yakka individ, shaxs bir necha ismga, bir necha shaxslar esa bir umumiy ismga ega bo'lishi mumkin (adashlar, familiyadoshlar: Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Botir Zokirov, Shukur Burxonov, Erkin Yusupov kabi biz bilmagan, biz uchun notanish boshqa shaxslar ham bor).

Bu fikrga teskari qarashlar ham mavjud, ya'ni atoqli otlar, so'z bo'lgani uchun xuddi turdosh otlar kabi xilma-xil xususiyatlarga egadir. Bunday qarash o'z vaqtida faylasuf-stoiklar tomonidan asoslangan edi, keyinchalik XIX asrda X.Djozef, Dj.Mill, XX asrda O.Espersen kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, daniya olimi O.Espersenning ta'kidlashicha, "atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan ko'proq xususiyatlarga egadir. Atoqli otlar o'zida juda ko'plab belgi xususiyatlarni konnotatsiya qiladi".¹³

LIST OF USED REFERENCES:

1. Qodiriy A. Diyori bakr. – T.: Yangi asr avlodi NMM. 2007. – B. 183.
2. Xudoyqulov M. O'zbek hajviy publitsistikasining shakllanishi va rivojlanish tamoyillari. – Toshkent., fil.fan.dok., avtoref. 2001.
3. Qodiriy A. Diyori bakr. – T., Yangi asr avlodi NMM, 2007. B.77.
4. Gorelikova M.I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. – M: Russkiy yazыk, 1989. – 151 s.
5. Novikov L.A. Xudojestvennyy tekst i yego analiz. –M.: Russkiy yazыk, 1988.
6. Axmanova O.S. Slovarъ lingvisticheskix terminov. -M.: Russkiy yazыk, 1966.
7. Begmatov E. Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi. - T.: Ma'naviyat, 1998.

¹² Бояркин В.Д. Фразеологические единицы с ономастическим компонентом в современном русском литературном языке: Дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1987. – 361 с

¹³ Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1992. – № 3-4. – B. 37-42; Yo'ldoshev B. Frazeologiya tarixidan lavhalar. – Samarqand: «So'g'diyona» nashriyoti, 1998. – 110 b.; Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 200 b.; Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti (monografiya). – Samarqand: SamDU nashri, 2007. – 108 b.

8. Begmatov E. Nomlar va odamlar. - T.: Ma'naviyat, 1966.
9. Begmatov E. O'zbek ismlari. - T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2007.